



JAHONNING YETAKCHI MAMLAKATLARIDA INVESTISIYALARNI XALQARO LIZING ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich,
UrDU tadqiqotchisi
E-mail: Dunyouz@mail.ru
<https://orcid.org/0009-0007-2412-5966>

MAQOLA HAQIDA
Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil
Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil
Jurnal soni: 17-B
Maqola raqami: 11
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1440>
**KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/
KEYWORDS**

investisiya, xorijiy investitsiyalar, xalqaro
lizing, investisiya siyosati, moliyaviy lizing,
iqtisodiy rivojlanish, investitsion muhit.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada xorijiy investitsiyalarni moliyalashtirishda xalqaro lizingning iqtisodiy mohiyati, afzalliklari va milliy iqtisodiyot rivojidagi o'zni batafsil yoritilgan. Lizing mexanizmlari orqali investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi va ularning milliy iqtisodiyotga tatbiq etish strategiyalari tahlil qilingan. Maqolada xalqaro lizingning ustuvor tarmoqlarda neft va gaz, kimyo sanoati, transport, energetika, qurilish, telekommunikatsiya va qishloq xo'jaligi sohalarida qo'llanilishi, shuningdek, turizm va yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga ko'rsatadigan ta'siri yoritilgan. Maqola shuningdek lizingning iqtisodiy samaradorligi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishdagi roli, ish o'rinlarini yaratish, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, texnik qayta qurollantirish va eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratadi. Xorijiy investorlarga yaratilgan soliq va moliyaviy imtiyozlar, kafolatlar va investitsion muhitni yaxshilash mexanizmlari xalqaro lizingni yanada samarali qilishdagi muhim omillar sifatida ta'kidlangan. Shu bilan birga, maqolada rivojlangan mamlakatlar lizing bozorining statistik ko'rsatkichlari, xalqaro tashkilotlar faoliyati va ularning milliy qonunchilik bilan integratsiyasi tahlil qilingan. Bu esa O'zbekiston sharoitida xalqaro lizing mexanizmlarini kengroq joriy etish va milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Kirish. Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalaridan biri bo'lgan investitsiyalar bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o'zi uni xorijiy tajribalar asosida chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ilmiy asoslangan investisiya qarorlarini qabul qilish, investisiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi manbalarni hisobga olgan holda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekistonda investitsiyalarni moliyalashtirish muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi investitsiyalarni moliyalashtirishda chet el kapitalini jalb qilish zarurati va bevosita xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi rolining yuqoriligi, qo'shma korxonalar faoliyatida ayrim muammolarning mavjudligi va ularni bartaraf etish zarurati bilan belgilanadi. 2025-yilda investitsiyalarning xajmi 43 milliard dollardan oshganligi mamlakatimizda investisiya jarayonlarining jadal faollashib borayotganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar tahlili

Xorijiy investitsiyalarni moliyalashtirishda xalqaro lizingning o'zni va uning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati masalasi nafaqat amaliy, balki ilmiy adabiyotlarda ham keng yoritilgan. Rivojlangan mamlakatlarda lizing amaliyoti turli tarmoqlarda samarali qo'llanilib, investitsiya jalb qilishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Yevropada "Leaseurope" federatsiyasi orqali 46 ta davlatdagi lizing assotsiatsiyalari o'zaro hamkorlik qilib, texnika va transport sohalariga kiritilgan lizing xajmining o'sishini ta'minlamoqda¹. AQSHda esa ELFA 575 dan ortiq kompaniyani birlashtirgan holda moliyaviy lizing bozorining yetakchi tashkiloti hisoblanadi². Buyuk Britaniyada FLA, Germaniyada BDL kabi assotsiatsiyalar lizing bozorining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi³.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar, masalan, Giddy I.H. (2019) va UNCTAD (2023), lizingning global moliya bozorida ahamiyati va iqtisodiyot rivojiga ta'sirini yoritadi⁴. O'zbekistonda lizing faoliyati 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan "Lizing to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solingan bo'lib, Prezident Sh.M. Mirziyoyevning strategik yo'nalishlari investitsiyalarni jalb qilish va lizing mexanizmlarini

rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi⁵. Shu bilan birga, Urazaliyev B.S. (2025) xalqaro lizingning milliy iqtisodiyotga ta'sirini amaliy jihatdan tahlil qilgan⁶.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, xalqaro lizing milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, investitsiya jalb qilishda samarali vosita sifatida qo'llanilishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi esa O'zbekistonda lizing faoliyatini takomillashtirish va qonunchilikni optimallashtirishda muhim manba hisoblanadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda xalqaro lizing orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning samaradorligini tahlil qilish uchun komparativ va solishtirma metodlar, statistik tahlil, shuningdek huquqiy va iqtisodiy manbalarni tahlil qilish usullari qo'llanildi. Xorijiy va milliy lizing tashkilotlari faoliyati bo'yicha rasmiy hisobotlar, xalqaro statistika ma'lumotlari va qonun hujjatlari o'rganildi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ularning lizing mexanizmlari solishtirildi, milliy iqtisodiyotga tatbiq qilish imkoniyatlari aniqlab olindi. Tadqiqot nazariy tahlil, amaliy misollar va statistik ko'rsatkichlar asosida olib borildi.

Tahlil va natijalar. Prezident Shavkat Mirziyoyev tamoni bilan 2026-yil 15-yanvar kuni Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyatini muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish ma'lumotlariga ko'ra ikki va ko'p tomonlama tadbirlar doirasida 2025-yilda umumiy qiymati 160 milliard dollarlik investisiya loyihalari va savdo shartnomalari bo'yicha bitimlar imzolandi. Tarixda ilk bor tashqi savdo aylanmasi 80 milliard dollardan oshib, eksport 33,5 milliard dollarga yetgan. O'tgan yili 75 ta davlatga eksport hajmi qariyb 4,5 milliard dollarga ko'paydi.

Iqtisodiyotning hozirgi holati investisiya siyosati va uni amalga oshirish mexanizmi, shuningdek, davlatning bu sohada ro'y berayotgan jarayonlarga ta'sir ko'rsatish shakllariga yangicha yondashishni talab qiladi.

¹ Leaseurope. Leaseurope Index Q4 2024 / Table 1: Aggregate Data, Q1 2023 – Q4 2024. Brussels, 2024. 3 b. URL: www.Leaseurope.org

² Equipment Leasing and Finance Association (ELFA). Monthly Leasing and Finance Index, December 2025 (MLFI-25). Washington DC, 21 December 2025. URL: www.elfaonline.org

³ Finance & Leasing Association (FLA). Facts & Figures. London, 2025. URL: www.fla.org; Bundesverband Deutscher Leasing-Unternehmen (BDL). Press Conference of the "Leasing-Market 2024". Berlin, 2024. URL: www.leasingverband.de

⁴ Giddy I.H. Global Financial Markets. New York: Oxford University Press, 2019. 480 p.; UNCTAD. World Investment Report. Geneva, 2023. 142 p.

⁵ O'zbekiston Respublikasi. Lizing to'g'risidagi Qonun. Toshkent, 14 aprel 1999. 5 b.; Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2023. 72 b.

⁶ Urazaliyev B.S. Xorijiy investitsiyalarni moliyalashtirishda xalqaro lizingning o'zni. Ilmiy maqola. Toshkent, 2025. 30 b.

Bu yondashuvlardan biri lizing amaliyoti bo'lib, u iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida uzoq muddatli investisiyalarni jalb qilishning asosiy shakli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi "Lizing to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasida lizing tushunchasi to'liq yoritib berilgan.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investisiyalarning xususan xalqaro lizingning ahamiyati benihoyat katta bo'lib, u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- birinchidan, xalqaro lizing ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investisiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohaslariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

- to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.

Xalqaro lizing investisiyaning alohida turi bo'lib, bunda tomonlarning hech bo'lmaganda bittasi (yoki hammasi) chet el sherigi bo'ladi, bundan tashqari tomonlarning biri xorijiy firma bilan qo'shma kapitalga ega sherig bo'lishi ham mumkin.

Xalqaro lizing asosida moliyalashtirilayotgan investisiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya'ni neft va kimyo sanoati, transport, energetika, yer osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Yirik xalqaro lizing tashkilotlaridan "Century Tokyo Leasing Corporation" (TC-Lease) va milliy lizing assotsiatsiyalarining Yevropa federatsiyasi (Leaseurope)ni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. "TC-Lease" Xitoy, Singapur, Indoneziya, Malayziya, AQSH, Ukraina kabi davlatlarda qator filiallariga ega bo'lib lizing, tijorat, energetika, ko'chmas mulk, investisiyalar kiritish va boshqa ko'plab sohalarda o'z faoliyatini olib boradi, tabiat muhofazasiga asoslangan bunday faoliyat doirasida "TC-Lease Group" ISO 14001 (Ekologik menejment tizimi) sertifikatiga ega.

"TC-Lease" tomonidan 2024 yil yakunlariga ko'ra 2023 yilda umumiy xajmi 1346,1 mln.iyenaga teng bo'lgan turli shartnomalar tuzilgan bo'lib, shundan 458,6 mln.iyena lizing shartnomalari ulishiga to'g'ri kelgan. Lizing shartnomalarini tuzishda o'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatilmagan⁷.

"Leaseurope" hozirgi kunda Yevropa davlatlarining 46 ta assotsiatsiyalarini o'zida birlashtirgan federatsiya hisoblanadi. Bugungi kunda "Leaseurope" Yevropa davlatlaridan tashqari AQSH, Kanada, Avstraliya va Yaponiya davlatlarining lizing assotsiatsiyalari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatgan.

"Leaseurope" tamonidan "Leaseurope Index" so'rovnoma olib boriladi, bu so'rovnoma Yevropa davlatlari ixtiyoriy ravishda ishtirok etishadi, shunga ko'ra 2024 yilning 4 chi choragida Yevropada texnika va transport sohasiga kiritilgan lizing xajmi o'tgan yilning shu davriga mos ravishda 7,3% ga oshganligi kuzatilgan. 2024 yil yakunlariga ko'ra tuzilgan lizing shartnomalari xajmi 8% ga oshgan bo'lib 123 milliard yevroni tashkil qilganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga to'lovsiz qoldirilgan lizing shartnomalari xajmi 4,3% ga oshgan bo'lib buning oqibatida qaytarilmaslik risk chegarasiga tushgan aktivlar xajmi xam 9,5% ga oshgan⁸.

AQSH lizing bozorida ko'plab lizing beruvchilarning turlari mavjud bo'lib, ular izchil tizim asosida faoliyat yuritishadi Bugungi kunda AQSHning eng yirik assotsiatsiyalardan biri bu "Equipment leasing and finance association" (ELFA) bo'lib, u o'z tarkibida 575 dan ziyod kompaniyani birlashtirgan. "ELFA" muntazam ravishda "Monthly Leasing and Finance Index" (MLFI-25) nomini olgan xar oylik lizing va moliya bozorlari yakuniga bag'ishlangan ma'lumotlarni e'lon qilib boradi. Shunga ko'ra kuzatuv tahlili ostidagi kompaniyalarning lizing bozoridagi ulushi 2025 yilning dekabr holatiga ko'ra 1,3 trillion AQSH

dollarini tashkil qilgan bo'lib bu borada o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6% ga pasayish kuzatilgan. "ELFA"ning azolari tomonidan bugungi kunda kompyuter, tibbiyot, qishloq xo'jalik, qurilish, tog' kon sanoat texnikalari, shaxsiy va yo'lovchi tashuvchi samolyotlar, vagonlar, yuk tashuvchi va yengil avtomobillar, yirik kemalar va konteynerlar lizingga taqdim etiladi⁹.

Buyuk Britaniyada yetakchi lizing uyushmasi bu "Finance & Leasing Association" (FLA) bo'lib, 2025 yil xolatiga ko'ra uning asosiy a'zolari soni 268 tani tashkil qiladi. 2025 yilning birinchi yarimida FLA a'zolari tomonidan 80,3 mlrd. funt sterlingga teng miqdorda lizing ajratilgan. FLA a'zolari tarkibiga banklar, qurilish uyushmalari, lizing kompaniyalari, moliya uylari kiradi, ular moliyaviy lizing, operativ lizing, ko'chmas mulk ijarasi va savdosi, turli kreditlar ajratish kabi xizmatlarni taqdim etishadi. FLA a'zolari tomonidan 2024 yil iyuldan 2025 yil iyungacha bo'lgan muddat ichida amalga oshirilgan lizing xajmi 158,8 mln funt sterlingdan oshgan¹⁰.

Bugungi kunda Germaniyada ko'plab lizing kompaniyalarini ko'rish mumkin. Shulardan taxminan 200 tasi "Bundesverband Deutscher Leasing-Unternehmen" (BDL) nemis lizing assotsiatsiyasi tarkibiga kiradi. Lizing Germaniyada investisiya mexanizimini harakatga keltiruvchi asosiy omillardan biri sanaladi. 2024 yil Germaniyada amalga oshirilgan lizing xajmi 80,4 mlrd. yevroni tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2023 yilda 83,5 mlrd. Yevroga teng bo'lgan¹¹.

Muhokama

Xalqaro lizing tashkilotlarining asosiy vazifalari a'zo mamlakatlar milliy qonunchiligini o'rganish va taqqoslash, barcha xuquqiy, soliq va moliyaviy masalalarni hal etish, lizing firmalarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganishdan iboratdir.

Har qanday tadbirkorlik faoliyati singari lizing shartnomalari ham ishonchli huquqiy asosga ega bo'lishi kerak. Yaqin vaqtlargacha ko'pgina rivojlangan mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra mashina va uskunalar ijarasi umumiy me'yorlar asosida boshqarilar, tomonlar munosabatini bildiruvchi texnologik aniqliklar mavjud emas edi. Keyingi vaqtlarda bir qator xorijiy mamlakatlardagi fuqorolik huquqlarida lizing va uning turlariga huquqiy aniqlik berilgan, ulardan bir qanchasi bo'yicha esa tegishli qonuniy hujjatlar qabul qilingan.

Yurtimizga xalqaro lizingni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, xorijiy investorlar mablag'larini milliy iqtisodiyot uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan, jumladan:

- xorijiy investorlar kapitalining saqlanishi uchun kafolatlar;
- ko'rilgan zararlarning qoplanishi uchun kafolatlar;
- soliqqa tortish tizimida ularga oid belgilangan imtiyozlar;
- foyda va daromadlarni xorijga olib chiqib ketishning erkinligi;
- milliy so'mda va chet el valyutasida olingan foydalarni o'tkazish va olib chiqib ketish imkoniyati;
- bojxona imtiyozlarining mavjudligi;
- xorijiy investorlarning mulklari va ularning o'zlarini xavf-xatarlardan sug'urtaviy muhofaza qilish tizimini yaratilganligi.

Fikrimizcha Respublikada ko'p ukadli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xalqaro lizing faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda asosiy vazifalar ijtimoiy va xususiy manfaatlarini, ayrim mamlakatlar, korporatsiyalar, xalqaro moliya institutlari, yakka investorlar manfaatlarini to'g'ri aniqlash, ularning o'zaro maqbul nisbatlarini kelishib olish, ularni ruyobga chiqarishning teng huquqiy sharoitlari va kafolatlarini belgilashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Yurtimizda investision loyihalarni moliyalashtirishga va korxonalar uchun samarali bo'lishiga, iqtisodiy infratuzilmaning markaziy bo'g'ini moliyaviy mexanizmning tarkibiy qismi bo'lgan soliqlar mexanizmi hisoblanadi. Chunki, soliqlar ham har bir korxona miqyosida tuzilgan investision loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda asosiy o'rinni egallaydi.

Ko'rib turganimizdek, mamlakatimizda, ayni paytda lizing sohasidagi mavjud muammolarni hal etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- xorijiy va mahalliy uskuna va minitexnologiyalarni topish, harid qilish bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatish, mavjud bozor konyukturasini chuqur o'rganish;

⁷ Century Tokyo Leasing Corporation. Data Book 2024. Tokyo, 2024. 07 b. URL: https://www.tokyocentury.co.jp/assets/pdf/seconddir/databook2024en_01.pdf

⁸ Leaseurope. Leaseurope Index Q4 2024 / Table 1: Aggregate Data, Q1 2023 – Q4 2024. Brussels, 2024. 3 b. URL: www.Leaseurope.org

⁹ Equipment Leasing and Finance Association (ELFA). Monthly Leasing and Finance Index, December 2025 (MLFI-25). Washington DC, 21 December 2025. URL: www.elfaonline.org

¹⁰ Finance & Leasing Association (FLA). Facts & Figures. London, 2025. URL: www.fla.org

¹¹ Bundesverband Deutscher Leasing-Unternehmen (BDL). Press Conference of the "Leasing-Market 2024". Berlin, 2024. URL: www.leasingverband.de

- sarmoyaviy takliflar ishlab chiqish va ularni tayyorlashga ko'maklashish;
- tashqi va ichki bozor ahvoli, uning ko'rsatkichlari to'g'risida axborot xizmatini ko'rsatish tizimini takomillashtirish;
- xalqaro Savdo-iqtisodiy uchrashuvlar tashkil etish;
- xorijiy hamkorlarga viza olishda ko'maklashuvchi markazlarni shakillantirish;
- xalqaro va milliy tadbirkorlarni o'zaro uchrashuvlarini ko'paytirish;
- bojxona hujjatlarini rasmiylashtirishga ko'maklashuvchi subektlar faoliyatini takomillashtirish;
- milliy buxgalteriya hisobini Xalqaro Moliyaviy Hisob va hisobot Standartlariga yanada muvofiqlashtirish;
- investitsiyalarning hududiy bir yoqlamalik xususiyatini oldini olish maqsadida, viloyatlarni rivojlanganlik darajasi bo'yicha 3 guruhga bo'lib, sust rivojlangan mintaqalarga investorlar uchun ko'proq manfaatdorlik, moyillik yaratish;
- xorijiy erkin industrial zonalarda tavarlar eksporti amaliyotini o'rganish va ularning ijobiy tamonlarini yurtimizda qo'llash.

Respublikamizda lizing faoliyati rivojlanishining hozirgi bosqichida lizing munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy asoslar mavjud bo'lib, ularda lizing faoliyatini rivojlanishini rag'batlantiruvchi bir qator imtiyozlar ko'zda tutilgan. Biroq respublikamiz lizing amaliyoti lizingni istiqboldagi rivojlanishi doimiy monitoring asosida amal qiluvchi mi'yoriy hujjatlar tizimini muntazam takomillashtirish, lizingning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillarni aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf qilishni talab qiladi.

Davlatimiz iqtisodiyotini ko'tarishning asosiy yo'llaridan biri bu iqtisodiy rivojlangan davlatlarning lizing amaliyotini o'rganish, ulardagi qo'llaniladigan ijobiy usullardan foydalanish, respublikada lizing munosabatlariga keng yo'l ochib beruvchi qonun va qonunosti hujjatlarni tahlil etishdir.

Xususan, dunyoning barcha mamlakatlarida, hozirda lizing

munosabatlarini huquqiy tartibga soluvchi maxsus qonunlar qabul qilinib, ushbu shartnomaviy munosabatni yanada rivojlantirish yo'lida bir necha davlatlarda yetarli imtiyozlar yaratilgan.

Kontinental va anglo-amerika huquq tizimi amalda bo'lgan mamlakatlarning lizing qonunchiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy lizing shartnomasining ob'yektiga egalik qilish tartibi turlicha belgilangan. Xususan, ko'char va ko'chmas mulklarning moliyaviy lizinggiga nisbatan qo'yilgan talablar, mulkdan faqat tadbirkorlik maqsadida foydalanish tartibi yoki undan shaxsiy ehtiyoj yo'lida ham foydalanish mumkinligi bunga misol bo'ladi.

Xulosa

Xalqaro lizing mexanizmi milliy iqtisodiyotning rivojlanishida muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni osonlashtiradi, balki zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda ham samarali hisoblanadi. Shuningdek, lizing kichik biznesni va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, ish o'rinlarini yaratish, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash va texnik qayta qurollantirish imkonini beradi.

Rivojlangan mamlakatlarning lizing amaliyoti shuni ko'rsatadiki, xalqaro lizing investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy va huquqiy barqarorlikni ta'minlash, shuningdek iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishning samarali mexanizmi sifatida ishlatiladi. O'zbekistonda esa milliy qonunchilik va soliq imtiyozlari, xorijiy investorlarga yaratilgan kafolatlar hamda investitsion qo'llab-quvvatlash tizimi xalqaro lizingni yanada kengroq miqyosda joriy etish va milliy iqtisodiyotga integratsiya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda, lizing munosabatlarini yanada takomillashtirish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Century Tokyo Leasing Corporation. Data Book 2024. Tokyo, 2024. 07 b. URL: https://www.tokyocentury.co.jp/assets/pdf/seconddir/databook2024_en_01.pdf
2. Leaseurope. Leaseurope Index Q4 2024 / Table 1: Aggregate Data, Q1 2023 – Q4 2024. Brussels, 2024. 3 b. URL: www.leaseurope.org
3. Equipment Leasing and Finance Association (ELFA). Monthly Leasing and Finance Index, December 2025 (MLFI-25). Washington DC, 21 December 2025. URL: www.elfaonline.org
4. Finance & Leasing Association (FLA). Facts & Figures. London, 2025. URL: www.fla.org
5. Bundesverband Deutscher Leasing-Unternehmen (BDL). Press Conference of the "Leasing-Market 2024". Berlin, 2024. URL: www.leasingverband.de
6. O'zbekiston Respublikasi. Lizing to'g'risidagi Qonun. Toshkent, 14 aprel 1999. 5 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.

Toshkent: O'zbekiston, 2023. 72 b.

8. Century Tokyo Leasing Corporation. Data Book 2024. Tokyo, 2024. 210 b.
9. Leaseurope. Leaseurope Index Q4 2024: Aggregate Data. Brussels, 2024. 15 b.
10. Equipment Leasing and Finance Association (ELFA). Monthly Leasing and Finance Index (MLFI-25), December 2025. Washington DC, 2025. 12 b.
11. Finance & Leasing Association (FLA). Facts & Figures. London, 2025. 18 b.
12. Bundesverband Deutscher Leasing-Unternehmen (BDL). Leasing-Market 2024. Berlin, 2024. 23 b.
13. Urazaliyev B.S. Xorijiy investitsiyalarni moliyalashtirishda xalqaro lizingning o'рни. Ilmiy maqola. Toshkent, 2025. 30 b.
14. Giddy I.H. Global Financial Markets. New York: Oxford University Press, 2019. 480 p.
15. UNCTAD. World Investment Report. Geneva, 2023. 142 p.